

80. Hajm birliklari va ular orasidagi bog'lanishlar

Yondosh mavzu:
muz va suv.

Hajm birliklari,
kub detsimter, litr.



1. Qaysi idishga ko'proq suv sig'adi? O'z xulosangizni tushuntiring.





2. Akmal kartondan kub shaklidagi qutি yasadi. Ushbu qutining har bir tomoni 10 cm yoki 1 dm.

Qutining hajmini toping:

- a) kub detsimetrlarda;
- b) kub santimetrlarda.

Akmal bu qutini tepasiga qadar suv bilan to'ldirdi, keyin esa bu suvni avaylab bir litrli bankaga quydi. U suv bankanining bo'g'izigacha to'lib, hammasi bankaga sig'ganiga ajablandi. Akmal qanday xulosaga kelishi mumkin?



Yodda tuting!

$$1 \text{ litr teng } 1 \text{ dm}^3 \text{ ga}$$
$$1 \text{ l} = 1 \text{ dm}^3$$

$$1 \text{ dm}^3 = 1000 \text{ cm}^3$$

1 litr teng 1 000 millilitr (ml)ga

Xulosa:

$$1 \text{ ml} = 1 \text{ cm}^3$$

80. Hajm birliklari va ular orasidagi bog'lanishlar

3. Ko'rsatilgan o'lchov birliklariga keltiring.

$$8 \text{ dm}^3 = \boxed{} \text{ cm}^3$$

$$23 \text{ dm}^3 = \boxed{} \text{ l}$$

$$9 \text{ l} = \boxed{} \text{ dm}^3$$

$$8\ 000 \text{ cm}^3 = \boxed{} \text{ dm}^3$$

$$6\ 000 \text{ dm}^3 = \boxed{} \text{ l}$$

$$2 \text{ dm}^3 = \boxed{} \text{ cm}^3$$

4. Hisoblang. Har bir stakanda qancha suv bor?



$$96 \text{ ml} + 8 \text{ cm}^3$$



$$124 \text{ ml} + 2 \cdot 8 \text{ cm}^3$$





$$178 \text{ ml} + 3 \cdot 8 \text{ cm}^3$$

5. Stakanga tomoni 3cm bo'lgan 14 ta bir xil muz kubiklari solindi. Biroz vaqt o'tgach, muz erib, suvga aylandi. Necha millilitr suv hosil bo'ldi?



6. Rasm bo'yicha tenglama tuzing va uni qulay o'lchov birliklariga keltirib yeching.

Sxema bu tenglama bilan qanday bog'liq?



7. Ifodalarni soddallashtiring.

$$421 + a + 328$$

$$t + 45 + 59 + 55$$

$$x + 795 : 5 + 91 : 7$$

$$112 + b + 408$$

$$19 + 31 + n + 64$$

$$1\ 155 : 7 + z + 13 \cdot 8$$

80. Hajm birliklari va ular orasidagi bog'lanishlar

8. Hisoblashlarni bajarmasdan taq qoslang.

$240 : 6$	\square	$264 : 6$	$228 : 12$	\square	$228 : 19$
$554 + 183$	\square	$554 - 183$	$129 + 325$	\square	$325 + 192$
$440 : 4$	\square	$440 \cdot 4$	$655 + 117$	\square	$655 - 117$



9. Ifodalarni yozing va ularni hisoblang. Topilgan qiymatlarni jadvalga yozing va qonuniyatni aniqlang. Jadvaldagি oxirgi qiymatni toping.
a) 8356 va 6119 sonlari yig'indisidan 14241 sonini ayirish.
b) 23 va 45 sonlari ko'paytmasini 3 ga bo'lish.
d) 1024 va 4 sonlari bo'linmasiga 200 ni qo'shish.

123	a	b	d	678	?
-----	---	---	---	-----	---



10. Bolalar to'plamdagи kubiklarni o'zaro bo'lib olishdi. Madina 14 ta kubik, Jasur 18 ta, Aziza 27 ta, Akmal 13 ta, Umida 20 ta, Sardor esa 10 ta kubik oldi.
a) Bolalarning qaysi biri o'zining barcha kubiklaridan kub yasay oladi?
b) Qolgan ikkita bola o'zlarining kubiklarini birlashtirib, kub yasay oladilarmi?



11. Qulay o'ichov birligiga keltirib hisoblang.

$$56 \text{ l} + 167 \text{ l} : 8$$

$$225 \text{ l} \cdot 2 : 10 + 471 \text{ l}$$

$$19 \text{ dm}^3 + 63 \text{ l}$$

$$(228 \text{ l} - 192 \text{ dm}^3) : 12$$



12. Buvim qish uchun 37 ta uch litrli va 48 ta ikki litrli bankalarda kompot yopdi.
a) Jami necha litr kompot yopilgan?
b) Aziza buvisi 200 dm^3 dan ortiq kompot tayyorlaganini aytdi. Aziza haqmi?